

## ZAMONAVIY TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Usmonov Murod Sodiqovich*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsent v.b*

Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lif berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlari oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat.

**Kalit so'zlar:** raqamli texnologiya, zamonaviylik, ta'lif texnologiyalari, zamonaviy ta'lif, ta'lif muassasalarini

In today's world, one of the main challenges is to provide modern education to young people and thus ensure the sustainable development of the country. It is a fact that in today's fast-paced world, learning how to access and use information has become a major goal for young people.

**Keywords:** digital technology, modernity, educational technologies, modern education, educational institutions.

Bugun dunyoda yoshlarga zamonaviy ta'lif berish va bu orqali mamlakat barqaror rivojini ta'minlash asosiy muammolardan biriga aylandi. Shiddat bilan rivojlanish kechayotgan hozirgi davrda axborot olish va undan to'g'ri foydalanishni o'rganish yoshlari oldidagi asosiy maqsadga aylangani ayni haqiqat.

Keyingi 50 yil mobaynida axborot texnologiyalari rivojlanishi tufayli insoniyat xayotida katta o'zgarishdar yuz berdi. Endilikda ta'lifni samarali tashkil etish uchun turli usul va vositalardan foydalanish boshlandi. Bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lsada sohada xali ko'plab ishlarni amalga oshirish zarurligini hayotning o'zi kun tartibiga qo'ymoqda. Endilikda zamonaviy ta'lifni tashkil etishga to'sqinlik qiluvchi holatlar bartaraf etilayotgan bo'lsada quyidagilar xamon sohadagi ishlarni amalga oshirish jarayoniga salbiy ta'sir etib kelmoqda:

- o'qituvchilarning zamonaviy axborot kommunikatsion vositalari xaqida kam ma'lumotga ega ekanligi;
- ta'lif muassasalarining zamonaviy ta'lif berishga mo'ljalangan vositalar bilan ta'minlanish xolatining talab darajasida emasligi;
- zamonaviy ta'lifni tashkil etishga yordam beradigan internet tarmog'inining yetib bormaganligi yoki tezlikning pastligi;
- o'quvchilar yoki talabalarning ta'lifni tashkil etishning zamonaviy vositalariga ega emasligi va xakazo.

Ta'kidlash joiz bugungi kunda ta'limni axborot kommunikatsion vositalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Hozirgi vaqtida o'qituvchilarning katta qismi axborot kommunikatsiya vositalaridan proyektordan unumli foydalanishni bilsada qolgan zamonaviy texnologiyalar xaqida kamroq bilimga egalar. Bu esa ta'limni tashkil etishda turli muammolarga olib kelishi mumkin. Raqamli texnologiyalar xaqida gapirganda internet orqali tashkil etiladigan mailing lists, telnet, yuneset, e-minbar kabilar yuqori samara berishi bilan ajralib turishini yodga olish mumkin. Ko'pchilikka ma'lumki o'qitishning odatdagi an'anaviy usulida o'qituvchi faol o'quvchi tinglovchiga aylanadi. Bunday xollarda ta'lim olish quruq yodlash va esda olib qolish uchun yo'nalgan bo'ladi.

Bu esa ma'lum muddat o'tib olingan bilimning xotiradan o'chishiga olib kelishi mumkin. Zamonaviy ta'lim jarayoni esa o'quvchiga o'z ustida ko'proq ishslash imkonini beradi. Ya'ni o'quvchining o'zi mavzuni o'qiydi, o'zlashtiradi, mustaqil yangi ma'lumotlar topadi va uni taxlil qiladi. Zamonaviy ta'lim jarayonini tashkil etish katta kuch va salohiyat talab etadi. Buning uchun raqamli texnolgiyalarni qo'lla yaxshi samara beradi. Xususan internet, telnet, e-minbar kabilar. Bu kabi texnologiyalar ta'limda

- o'quvchilar bilim olishining faollashishiga, modellashtirishga;;
- har qanday vositalarrdan kompleks foydalanishga;
- o'quvchilarning bilimlarni kompyuter orqali ob'yektiv baholanishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari raqamli texnologiyalardan foydalanish auditoriyaning to'liq qamrab olish va fanga nisbatan muhabbat uyg'otishga sabab bo'ladi. Shu bilan birga ta'lim muassasasida internet tarmog'ining bo'lishi va sifatli ishlashi ta'limni sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televide niya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzallikkari to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinnlidir. - darsliklar elektron xolatda ekranlarga ko'chadi;

- o'quvchilar hoxlagan joyida va xoxlagan vaqtida ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;
- o'quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkiniga ega bo'ladi;

- internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta'lismizini yangi bosqichga ko'taradi, vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;
- “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi.

Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o‘z navbatida raqamli ta’lim tizimiga o‘tishga to‘sinqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa xukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Prezidentimizning Oliy Majlisga murojaatnomalarida ayni shu sohada ko‘rsatmalar berilgani biz fikr yuritayotgan sohada sezilarli yuksalish yuz berishiga ishontiradi. WiFi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta’lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi.

Xulosa o‘rnida aytish joizki ta’limda zamонавија texnologiyalardan foydalanish bir tomondan muayyan qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqarsada boshqa tomondan turli yutuqlarni qo‘lga kiritilishiga sabab bo‘ladi. Bu jarayon induvidial salohiyatlari o‘quvchilarning yanada rivojlanishi holatida yaqqol namoyon bo‘ladi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. R. Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – T.: Nihol, 2016.
2. www.infosom.uz
3. Holmirzaev, N. National experience in the formation of working culture. Ekonomika i sotsium, 2019 - elibrary.ru №-4, 41-42  
<https://elibrary.ru/item.asp?id=38594995>